

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI
OLIIY TA'LIM, FAN VA INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI
FARG'ONA DAVLAT UNIVERSITETI

**FarDU.
ILMIY
XABARLAR**

1995-yildan nashr etiladi
Yilda 6 marta chiqadi

6-2023

**НАУЧНЫЙ
ВЕСТНИК.
ФерГУ**

Издаётся с 1995 года
Выходит 6 раз в год

G.Jo'rayeva	
Firoqiy va Partav	314
Z.Teshabojeva	
Abduqayum yo'ldoshning obraz yaratish mahorati	318
N.J.Abdusamatova	
Katta va tayyorlov guruh bolalari nutqini rivojlantirish jarayoniga integrativ yondashuv orqali maktab ta'limiga tayyorlash samaradorligini ta'minlash	322
Sh.A.Ermatova	
Erkin Vohidovning "Nido" dostonini o'qitishda "Blum taksonomiyasi" dan foydalanish	326
M.J.Jurabojeva	
Boshlang'ich sinf o'quvchilarini milliy qo'shiqlarni tinglash va tahlil etishga o'rgatishning o'ziga xosligi	331
Sh.M.Usanov	
O'zbekistonda millatlararo hamjihatlik va totuvlikning ta'minlanishida milliy madaniy markazlarning o'rnini.....	334
V.A.Giyosova	
Glyuttonimlar bilan ifodalangan bolalarga oid murojaat birliklari	339
G.P.Abdullaev	
Социокультурные и этнические особенности в развитии молодёжи в узбекских семьях под влиянием опыта пожилых.....	342
J.Sh.Amayusupov	
Bo'lajak pedagoglarda analitik tafakkurni rivojlantirish bosqichlari.....	345
M.T.Voxidova	
Abu Nasr Forobiy asarlarida insonparvarlik masalalari	350
N.M.Xodjibolayeva	
Jadid mutafakkirlarining qarashlari asosida talabalarning ekologik kompetentligini rivojlantirishning ilmiy-pedagogik imkoniyatlari	354
Sh.M.Muxamedov	
Materialshunoslik fanining elektron-dasturiy va metodik ta'minotini takomillashtirish.....	358
S.I.Raxmatullayeva	
Farg'ona viloyati axborot kutubxona markazi faoliyati tarixi	371
M.A.Junaydullayev	
Buxoroda jadidchilik harakatining vujudga kelishi tarixiy shart-sharoitlari	377
M.M.Temirova	
Ichki ishlar profilaktika inspektorlarining jamoat tartibini saqlash va xavfsizligini ta'minlashda asosiy vazifalari va funksiyalari	382
M.U.Kurbanov	
Umumiy o'rta ta'lim maktablari pedagogik jamoasini maqsadli boshqarishda ergonomik yondashuv	387
M.O.Batirkhanova	
Badiiy asarlardagi somatik frazeologik birliklar tarjimasining kommunikativ-pragmatik xususiyatlari	391
M.C.Ganieva	
Особенности социально-философских взглядов по развитию женского предпринимательства.....	395
I.A.Ismoilov	
Jazo tushunchasi va uning mazmun-mohiyati xususida	401
D.G'.Zaylobidinova	
Bo'lajak xorijiy til o'qituvchilarining kasbiy o'zini-o'zi rivojlantirishning metodik tizmi	405
D.A.Abduraxmonov	
Bo'lajak pedagoglarda kreativlik ko'nikmalarini rivojlantirish masalasiga doir	408
M.M.Yunusov	
Universitetlarda "Kimyoviy texnologiya" fanini fanlararo bog'lanish asosida o'qitishning pedagogik-psixologik jihatlari	416
G'.M.Alamov	
Sog'lom turmush tarzini to'g'ri tashkil qilishda xalq o'yinlarining o'rnini.....	420

**JADID MUTAFAKKIRLARINING QARASHLARI ASOSIDA TALABALARNING
EKOLOGIK KOMPETENTLIGINI RIVOJLANTIRISHNING ILMIY-PEDAGOGIK IMKONIYATLARI****НАУЧНО-ПЕДАГОГИЧЕСКИЕ ВОЗМОЖНОСТИ РАЗВИТИЯ ЭКОЛОГИЧЕСКОЙ
КОМПЕТЕНТНОСТИ СТУДЕНТОВ НА ОСНОВЕ ВЗГЛЯДОВ ДЖАДИД МЫСЛИТЕЛЕЙ****SCIENTIFIC-PEDAGOGICAL POSSIBILITIES OF DEVELOPING ENVIRONMENTAL
COMPETENCE OF STUDENTS BASED ON THE VIEWS OF JADID THINKERS****Xodjibolayeva Nozima Ma'murovna¹**¹Qo'qon davlat pedagogika instituti tayanch doktoranti**Annotatsiya**

Mazkur maqolada Jadid mutafakkirlarining qarashlari asosida talabalarning ekologik kompetentligini rivojlantirish masalalari tahlil qilingan hamda ilmiy-pedagogik imkoniyatlari tavsiflangan.

Аннотация

В данной статье, опираясь на взгляды джадидских мыслителей, анализируются вопросы развития экологической компетентности студентов и описываются научно-педагогические возможности.

Abstract

In this article, based on the views of Jadid thinkers, the issues of developing environmental competence of students are analyzed and the scientific and pedagogical possibilities are described.

Kalit so'zlar: kompetentlilik, ekologik ta'lim-tarbiya, ekologik kompetentlik, kompetensiya, pedagogik, metodik, jadid mutafakkirlari.

Ключевые слова: компетентность, экологическое образование и обучение, экологическая компетентность, компетентность, педагогические, методические, джадид мыслителей.

Key words: competence, ecological education and training, ecological competence, competence, pedagogical, methodical, jadid thinkers.

KIRISH

Bugungi kunda tariximizning ajralmas qismi bo'lgan jadidchilik harakati va jadid mutafakkirlarining ekologik tarbiya borasidagi qarashlaridan talabalarning ekologik kompetentligini rivojlantirishda foydalanishning pedagogik jihatlari tadqiq etish dolzarb vazifalardan biriga aylanmoqda va ilmiy-pedagogik tadqiqotlarda o'ziga xos ahamiyat kasb etmoqda. Shu nuqta nazardan ham jadidlarning ekologik tarbiya to'g'risidagi qarashlaridan kunimizdagi globa ekologik muamolarini bartaraf etishda va ekologik bilim va ko'nikmalarni shakllantirishda foydalanish muhim vazifalardan biriga aylanmoqda.

ADABIYOTLAR TAHLILI VA METODLAR

Jadidchilik harakati yuzaga kelgan davrda ekologiya atamasi hali iste'molga kirib rusum bo'lmagan, butun dunyo mamlakatlari muammolarini yaxlit bir hodisa deb talqin etishga undagan globallashuv jarayoni yuzaga chiqmagan edi. Lekin real hayotda hozir ijtimoiy ekologiya deb atalayotgan dolzarb masalalar mavjud edi.

Shuni alohida ta'kidlash lozimki, biz tanlagan muammo – talabalarning ekologik kompetentligini rivojlantirishda jadid pedagogikasining o'rni masalasiga nima uchundir hozirga qadar jiddiy ahamiyat berilmay kelindi. Holbuki, keyingi yillarda e'lon qilingan tadqiqotlarga qaraganda, XX asr boshlarida maydonga kelgan Turkiston jadidchiligining faoliyat doirasi asta sekin kengaya borib, ular garchi dastlab ma'rifatparvarlar sifatida ish boshlagan bo'lsalar ham, ko'p o'tmasdan ijtimoiy hayotning barcha muhim sohalariga doir, xususan, tabiatshunoslik, tabiatni asrab-avaylash, atrof-muhitga ehtiyotkorona munosabatda bo'lish, gigiyenik madaniyatni shakllantirishga doir yondashuvlarni ilgari sura boshladilar.

NATIJALAR VA MUHOKAMA

Jadid mutafakkirlari ta'limotlarining eng muhim ahamiyati, ekologik tanglik sabablarini va uning oqibatlarini jamiyatdagi ma'rifatsizlik, ma'naviy qashshoqlik bilan bog'lab ko'rsatilishini axloqiy determinizmning tizimlashgan shakli sifatida qarash mumkin.

Jadid mutafakkirlarining qarashlari asosida talabalarning ekologik kompetentligini rivojlantirish muhim va dolzarb pedagogik vazifalardandir. Shuning uchun ham, talabalarning jadidchilik harkati, uning namoyandalari va ularning tabiatni asrab-avaylash, unga ehtiyotkorona munosabatda bo'lish va ekologik tanglikni oldini olishga qaratilgan qarashlarini oliy ta'limda pedagogik jarayonga kengroq olib kirish, ularning imkoniyatlarida talablarning ekologik bilim va ko'nikmalarini rivojlantirishda foydalanish ustuvorvazifalardan biri bo'lib qoladi.

Buning uchun jadid mutafakkirlarining turli yo'nalishlardagi qarshlarini talabalarga o'qitish, ularni mustaqil ta'limda individual o'rganish imkoniyatini yaratish asosida talablarni ekologik kompetentligini rivojlantirish mumkin bo'ldadi.

Jadidlarning yangi milliy davlatchilikni tashkil etish, maktab-maorif va o'qish-o'qitish, tarixiy va madaniy-ma'naviy merosga yangicha munosabat ruhida maqola va tadqiqotlari bilan birga, Turkiston xalqlariga ajdodlari tomonidan meros bo'lib qolgan ona Vatan, uning bebaho suv va tuprog'i, musaffo havosi, tabiiy boyliklarini asrab-avaylashga doir fikr-mulohazalari ifoda etilgan ilmiy-publitsistik, pedagogik, badiiy asarlar ham yaratildi. Bu yo'nalishdagi asarlar, tabiiyki, o'tgan asr boshlarida boshlangan milliy uyg'onish jarayonida ma'rifatchilik harakatining nechog'lik katta va salmoqli kuch sifatida maydonga chiqqanini ko'rsatadi.

Jadidchilikning mashhur vakili – Saidnosir Mirjalil o'g'li suv turkistonliklar uchun hayot-mamot masalasi ekanligini chuqur his etib, 1917 yil Fevral inqilobidan so'ng jamoatchilik diqqatini mazkur dolzarb masalaga qaratdi va «Turkistonda suv masalasi» degan maqolasida «Suv yo'q, demak, Turkistonda hayot yo'qdir» deb yozdi. Mana shunday tarixiy manbaalar asosida talabalarning ekologik bilim va ko'nikmalarini rivojlantirish pedagogik jarayonning qiziqarli va ahamiyatli bo'lishini ta'minlaydi.

Talabalarning ekologik kompetentligini rivojlantirish, atrof-muhitni asrab avaylash, tabiatga oqilona munosabatda bo'lish, tabiiy resurslardan unumli foydalanishga doir pedagogik jarayonni takshmi qilishda mashhur jadid ma'rifatparvari Abdurauf Fitratning g'oyalaridan foydalanish ham mumkin. U jamiyatni isloh qilish, ta'lim-tarbiyani modernizatsiyalash, yangicha yondashuvni olib kirish bilan birga atrof muhitga, tabiatga oqilona munosabatda bo'lishni ham targ'ib qilgan. Uning «Munozara» va «Hind sayyohining qissasi» kabi asarlarida Turkiston va Buxoro amirligidagi qishloq va shaxarlardagi tozalik masalasiga alohida e'tibor qaratilgan. Uning «Rahbariy najot» axloqiy asarida tozalik va ekologik tarbiyaga oid qarashlarini yanada kengroq yoritadi. Buyuk alloma Fitrat, ayniqsa, bolalarning tarbiyasida, ularning yetuk va sog'lom bo'lishlari uchun tozalikning ahamiyati muhim deb biladi. Fitrat nazokat va tozalik bolalar tarbiyasida katta ahamiyatga egadir deb fikr bildiradi. Nafosat va pokizalik katta yoshdagi insonlarga qanchalik muhim bo'lsa, kichiklarga o'n barobar zarurdir deb uqtiradi. U bolalarga shahsiy gigiyena qoidalariga qat'iy amal qilish lozimligini alohida ta'kidlaydi. Alloma «bolaning tarbiyasida toza havoning ahamiyatiga to'htalib, havo inson uchun ovqatdan ham muhimdir. Besh, olti soat ovqatsiz turish mumkin, lekin bir daqiqa ham havosiz turish mumkin emas. Shuning uchun bolalarni toza havoga, chorbog'larga olib chiqish lozim» deb ta'kitlaydi. Abdurauf Fitrat o'z tabiiy-ilmiy qarashlarida bolalarni atrof muhitni sevishga, asrashga chaqiradi. U o'z darslik va qo'llanmalarida ham tabiatga oid ko'plab ekologik fikrlarini jadid maktablarida o'quvchilarga yetkazgan.

Shuningdek, talabalarning ekologik bilim va ko'nikmalarini o'stirishda Fitratning «Hind sayyohining qissasi» ham muhim ahamiyatga ega hisoblanadi. Allomuning «Hind sayyohining» qissasi asari Buxoroga kelgan Hindistonlik musulmon sayyoh tilidan hikoya qilinadi. Aslida Hind sayyohi - muallifning o'zi hisoblanadi. Asarda Buxoro davlatining madaniyati, tabobati, sanoati va hatto yer osti boyliklaridan xalq manfaatida foydalanish, o'lkaning ma'naviy va moddiy boyliklari haqidagi qayg'urib gapiradi. Fitrat hind sayyohi tilidan Buxoroda tozalik, sog'liqni saqlash ishlari o'lda-jo'lda ekanligi haqida gapiradi hamda shaharda tibbiyotga oid oliy maktab – Dorush-shifo ochish zarurligini ta'kidlaydi. Asarda rus shifokori obrazida Fitrat o'z yurtdoshlarini Yevropa mamlakatlaridagi kabi madaniy, va pokiza va o'qimishli kishilar bo'lib ko'rinishlari kerakligi to'g'risida fikrlar bildiradi [1]. Shuningdek, mazkur risolada tabiatni muhofaza qilishga oid o'sha davr uchun Movaraunnahr doirasida emas, jahon miqyosida hal etilishi kerak bo'lgan masalalarni o'rtaga tashlaydi. U Buxoro amirligiga qarashli yerlardan unumli foydalanish haqidagi quyidagi fikrni bildiradi «Agar shu Shahrisabz yerlari Yapon elida bo'lganda edi zar ekib, zar undirar edilar».

Fitrat Buxoro shahri ko'chalarini pokiza saqlash havosini ozoda tutish to'g'risida quyidagicha fikr bildiradi: «Yer yuzidagi mavjud mikroblar shamol va chang g'ubor bilan yerdan

ko'tarilib, havoda javlon urib, havodan bir necha yo'llar orqali bizga ko'chadi. Avvalo, taomimizga, xususan, meva-chevaga qo'nadi, shuning uchun ularni yuvib yeyish kerak. To'rtinchidan, nafas olishimiz bilan ichimizga kirib, biror bir ichki a'zolarimizda o'nashib oladi. Buning chorasini shahar ko'chalarini pokiza saqlab, havosini toza tutish kerak. Farang va Rusiyadagi keng va ozoda ko'chalarni ko'rib, hayron qolib labingizni tishlarsiz, ularning hech biri ko'z bo'yamachilik uchun emas, balki hukumtalari buning uchun to'g'ri, zarur qonun tayinlaganlar. Baxtga qarshi bizning ko'chalarimiz iflosligi bizda shunda nafrat uyg'otadiki, tasvirda ojizimiz. Vaholangki, shaharlarning toza va ozodaligi har bir millat hayoti uchun muhimdir. Mana shunday fikr-mulohazalar va qarashlar asosida talabalarning ekologik bilim va ko'nikmalarni rivojlantirish ularning kasbiy kompetentligini rivojlantirish bilan birga ularning tarixiy tafakkurini ham o'stiradi [4].

Fitratning tabiiy-ilmiy qarashlarida turli fanlarda foydalanish asosida Sharqda dehqonchilik suniy sug'orishga bog'liq bo'lgani o'rganishimiz mumkin. U qoldirgan ta'limotlarini o'qish, shu orqali bilimlarimizni boyitib borish uning ta'lim tarbiyaga doir ayniqsa ekologik tarbiyaga oid qarashlarini imkon qadar o'zlashtirish hamda kelgusi avlodlarga yetkazish dolzarb vazifalardan biridir [3].

Markaziy Osiyo hududidagi xalqlar, shu jumladan o'zbek xalqi har qanday sharoitda ham tejamkorlik madaniyatiga amal qiladi. Bu – mehnat sarflanadigan barcha mahsulotlarga, kundalik hayotga tegishlidir. Xalq orasida bu madaniyatni qisqacha, «uvol» deb nomlaydilar. Tabiat resurslari bo'lmish suv, tuproq, o'simliklardan bemaqsad, haddan tashqari foydalanish ham uvol hisoblanadi. Axloqqa zid harakatlar, ya'ni odamning haddan ziyoda yeb-ichishi, tabiat ashyolaridan katta boylik orttirish yo'lida beayov foydalanishi, o't-o'lanlarni payhon qilishi – bularning hammasi uvol hisoblanadi. Shuning uchun o'z vaqtida Abdurauf Fitrat barchani ogohlikka chaqirib shunday yozgan edi: «Vakillari isrof kasalligiga yo'liqqan millat, shubha yo'qki, nobud bo'ladi. Agar olam tarixiga nazar solsangiz, dunyodagi qavmlarning nobud bo'lish sabablaridan biri shu isrofgarchilikdir». Hozirgi paytda borgan sari kam ishlatilayotgan bu tushuncha odamlarning kim bo'lishlaridan qat'i nazar, barcha qatlamlari uchun bab-barobar ta'luqli. Talabalarda ekologik kompetentlikni rivojlantirishda jadidlarning uvol qilmaslik, haddan oshmaslik, tejamkor bo'lish, ba'zilar o'ylaganchalik xasislik belgisi emasligini tushuntirish, manbaalar orqali tasdiqlab o'rganish muhim pedagogik vazifalardandir.

O'zbek xalqida suvni iflos qilish, ayniqsa unga tuflash katta gunoh hisoblanadi. Har bir odatning tub sababi bo'lgani singari bu odatning ham o'z sabablari bor. Bugungi kunga kelib, ichimlik suvi katta muammolardan biri bo'lib turganda mana shu kabi qadimiy udumlarimizni, tajribalarimizni, tabiat bilan muloqot madaniyatimizni tiklasak muayyan yutuqlarni qo'lga kiritishimiz mumkin [5]. Mana shunday qadriyatlarimizni talabalarga tanishtirish, ularda bu boradagi munosabatlarini shakllantirish ularning ekologik, gigiyenik va ijtimoiy ko'nikmalarini rivojlantiradi.

Talabalarda ekologik kompetentlikni rivojlantirishda Fitratning quduq suvini ozoda saqlash, suv va tuproq mikroblardan ozoda saqlanish, shahar ko'chalarini ozodaligi orqali insonlar salomatligini saqlashga oid fikrlarini ko'rib chiqish ham samarali hisoblanadi. Uning fikriga ko'ra, «shahar ichkarisidagi ariqlar, xususan, bizning shahardagi ariqlar xalajoylarning tagidan o'tadi, quduq va xovuzlar ochiq turadi, qo'llar suvi nazorat qilinmaydi va joylar albatta turli mikroblarning qoni beshigi hisoblanadi. Agar quduqni toza joyda qazdirib, pokiza saqlab, ustini doim yopib qo'yilsa, shubhalanmay suvini ichsa bo'ladi. Tib fani qoidasi bezgak va Buxoro rishtasiga sabab Buxoroning suvi ekanligini shakl shubhasiz tasdiqlaydi. Zararli mikroblar suvdan odamga bir necha xil tarzda o'tadilar. Avvalo, suvni ichish orqali o'tadi. Biz Turkistonliklarning xalajoylarning yonidan suvni xovuzlarda to'plab, uning bir tarafida yuz, qo'l, oyoq yuvib, burun qoqib, ikkinchi tarafdan esa, zavq bilan chanqog'imizni qondiramiz» [2]. Pedagogik jarayonda talablarning mana shu fikrlarga munosabatini shakllantirish, ularning tarixan ajdodlarimizning tabiatga munosabatini o'rganish ularning ekaologik dunyoqarashini yanada rivojlantiradi.

XULOSA

Bugungi kunda talabalarning ekologik kompetentligini rivojlantirishda mintaqadan yetishib chiqqan jadidlarning tabiiy-ilmiy qarashlaridan ilmiy-amaliy faoliyatda foydalanish vazifalari zaruratga aylanmoqda. Chunki uchinchi mingyillikda ekologik muammolarning keskinlashib va globallashib ketishi bilan ekologik axloq normalarining regulyativ funksiyasini takomillashtirishga ehtiyoj ustuvorlashmoqda. Bu esa, unga ta'lim-tarbiya tizimida alohida e'tibor berishni taqozo qiladi. Biroq, ekologiyaga oid mavjud darsliklarda ekologiyaning ma'naviy-axloqiy masalalari

e'tibordan chetda qolgan. Shuning uchun ham jadid mutafakkirlarining ekologik axloq va tabiatni asrab-avaylashga oid xulosalaridan unumli foydalanish va zamonaviylik bilan uyg'unlashtirish dolzarblik kasb etmoqda.

ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. А.Фитрат. Ҳинд сайёҳининг қиссаси. Шарқ юлдузи журнали, 8 сон, 1991. –Б. 8.
2. Абдурауф Фитрат. Танланган асарлар: 5 жилд. – Тошкент: Маънавият, 2010. –Б. 168.
3. Саманова Ш.Б. Экологик толерантликнинг ижтимоий-фалсафий асослари. Фалсафа фанлари бўйича фалсафа доктори (phd) диссертацияси автореферати. Тошкент: ЎзМУ, -Б. 13.
4. Шодмонова С. Туркистон тарихи – матбуот кўзгусида. - Тошкент: Yangi-nashr, 2011. –Б. 125.
5. Яздонов З.Ш. Ўзбек халқ экологик маданияти анъаналарини тиклаш ва ривожлантириш тенденциялари/ фалсафа фанлари бўйича фалсафа доктори (PhD) диссертацияси автореферати Самарқанд – 2019. –Б. 16.